



FARG'ONA VILOYATI TOSHLOQ TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2022 - yil 29 - iyul

112-11-160-F/22

Toshloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28, 126-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 avgustdagi “Budget ma‘lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917- sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072 sonli qarori hamda Xalq deputatlari tuman kengashining 2022 yil 28 iyul kungi VI-60-90-11-160-K/22-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida,

1. Tuman budgetida hosil bo‘lgan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizi tumanda istiqomat qilayotgan aholi takliflaridan kelib chiqib, aholi tomonidan eng ko‘p ma‘qullangan (ovoz berilgan) tadbirni amalga oshirishga ishlatilishi belgilangan bo‘lib, jamoatchilik fikri asosida shakllangan eng ko‘p ovoz olgan (bolalar o‘yingohi, yo‘l usti va yo‘l osti o‘tkazgichlari, oromgoh va boshqa ko‘ngil ochar majmualarni qurish, maktablar, maktabgacha ta‘lim muassasalarini qurish va ta‘mirlash, maktablardagi kutubxonalarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, tibbiyot maskanlariga zamonaviy tibbiy asbob uskunalarni xarid qilish, yo‘lovchi tashish transporti infratuzilmasini yaxshilash, ichki yo‘llarni ta‘mirlash kabi taklif etilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman mahalliy budgetining 2022 yil 2 chorakda shakllangan qo‘shimcha manbalari hisobidan 1 237 000 000 (bir milliard ikki yuz o‘ttiz yetti million) so‘m mablag‘ tuman hokimligiga ajratilsin.

2. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (SH.Mo‘minov)ga ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning belgilangan tartibda jamoatchilik fikri asosida shakllangan eng ko‘p ovoz olgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun

maqsadli yo‘naltirilishini ta‘minlash;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman Moliya bo‘limi hamda G‘aznachilik bo‘linmasiga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi (J.Qurbonov)ga ajratilgan mablag‘lar doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish va budget xarajatlari rejasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta‘minlash, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi rahbariga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

4. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari K.Umarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



A.Djurabaev